

KASB TANLASH FAOLIYATINING ASOSIY PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

Radjabova Zuxra Mirzotilloevna*Chirchiq davlat pedagogika universiteti**“Psixologiya” kafedrasini o‘qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Kasb tanlash faoliyatining asosiy psixologik muammolari asbiy o‘z-o‘zini aniqlash kasb tanlash, kasbiy tayyorgarlik masalalaridan xabardorlik, kasbiy yo‘nalganlik, kasbiy yaroqlilik muhim komponentlarga bo‘linadi. Quyida ularga alohida-alohida qisqacha ma‘lumot berilgan Kasb tanlash, kasbga o‘zining mosligini aniqlash, kasbiy shakllanish, kasbiy rivojlanish uzluksiz davom etuvchi muammo bo‘lib, davrning o‘zgarishiga qarab unga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarning rolini aniqlash haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *O‘spirin, kasbiy moslashish, irodaviy sifatlar, kasbiy yo‘nalganlik, diagnostik vazifalar, kasbiy yaroqlilik, o‘spirinlar kasbiy tasavvurlari.*

Annotation: *In this article, the main psychological problems of career choice activities are divided into important components: professional self-determination, career choice, awareness of vocational training, professional orientation, professional suitability. The following is a brief overview of them. referred to.*

Keywords: *Adolescent, professional adaptation, willpower, professional orientation, diagnostic tasks, professional suitability, adolescent professional perceptions.*

Kirish

Respublikamizda olib borilayotgan ijtimoiy – iqtisodiy islohotlar aholidan yuksak madaniyatni, o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan kasbiy faoliyatning ikki xil jihati psixologik va pedagogik jihatlari farqlanadi. Kasbiy faoliyatning psixologik jihatlari xodimlarning kelajakda o‘z burch va majburiyatlarini samarali bajarishlari uchun ularga zarur bo‘lgan psixologik – pedagogik tamoyillar, kategoriyalar va tushunchalarni singdirish hamda kasb madaniyati va etikasi talablariga muvofiq hatti – harakatlarini izohlash, xizmat vazifalarini to‘g‘ri bajarishga o‘rgatish, o‘z kasbiga mehr – muhabbat, insonga hurmat bilan qarashni tarbiyalashda namoyon bo‘ladi.

Kasb tanlash qisqa vaqtda hal etiladigan ish bo‘lmasdan, balki qator bosqichlardan iborat jarayondir. Bu bosqichlarning davomiyligi tashqi omillarga va kasb tanlash sub‘ektining individual xususiyatlariga bog‘liq holda kechadi.

Kasbiy jihatdan o‘z o‘zini aniqlash katta maktab yoshiga kelib inson uchun dolzarb mazmun kasb etadi va bir qancha bosqichlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Biz quyida shu bosqichlarga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz. Bundan ko‘zlangan maqsad shundaki, biz ko‘rib chiqayotgan mavzuni, ya‘ni shaxsning kasb tanlashi, kasbiy shakllanishi va kasbiy faoliyati muammolarini chuqurroq yoritish orqali shaxsni aynan

kasbiy o‘z o‘zini aniqlash jarayonini bosqichma bosqich ko‘rib chiqishimiz zarur bo‘ladi. Shunday qilib, kasbiy o‘z o‘zini aniqlash beshta bosqichni o‘z ichiga qamrab oladi:

1. Kasbni ilk tanlash bosqichi. Bu bosqichda bola kasblar olami haqida yetarlicha tasavvurga ega bo‘ladi, o‘z ichki imkoniyatlari haqida kam biladi, uning kasbiy intilishi hali sust darajada bo‘ladi. Bu bosqich kichik maktab yoshiga taalluqli bo‘lib, unda kasbning mazmuni va ish sharoitlari haqida bolada savollar tug‘ilmaydi.

2. Kasbiy jihatdan o‘z-o‘zini aniqlash bosqichi katta maktab yoshiga to‘g‘ri keladi (15-17 yoshlar). Bu bosqichda ilk professional intilishlar paydo bo‘ladi va rivojlanadi hamda mehnatning turli xil sohalari ichidan o‘ziga ma‘qulini tanlash jarayoni kuzatiladi.

3. Kasbiy ta‘lim bosqichida tanlangan kasbni o‘zlashtirish jarayoni sodir bo‘ladi.

4. Kasbiy moslashish bosqichi kasbiy faoliyatning individual uslubining paydo bo‘lishi hamda kishining ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlar tizimiga bog‘lanishi bilan xarakterlanadi.

5. Mehnatda o‘zini ko‘rsatish bosqichi (qisman yoki butunlay) kasbiy mehnatga taalluqli bo‘lgan talablarning (kutilmalarning) bajarilishi yoki bajarilmasligi bilan bog‘liq holda kechadi.

Shunday qilib, kasbiy jihatdan o‘z o‘zini aniqlash - shaxs kasbiy faoliyatining barcha davrlarini, ya‘ni kasbiy intilishning paydo bo‘lishidan tortib to mehnat faoliyatidan butunlay ozod bo‘lgungacha bo‘lgan davrlarni o‘zida mujassamlashtirgan jarayondir. Aytish mumkinki, u insonning butun hayot yo‘lini qamrab oladi. Albatta, bu jarayonning eng muhim bosqichlaridan biri kasb tanlash amalga oshiriladigan bosqichdir. To‘g‘ri tanlangan kasb, bir tomondan, shaxsning ichki imkoniyatlariga mos tushadi va uning insoniy baxti hamda kamolotini belgilaydi, ikkinchi tomondan esa yaxshi kasb egasining samarali mehnati ta‘sirida jamiyat rivoji jadallashadi.

Biz shaxsning kasbiy shakllanishida o‘zaro aloqadorlik masalasini tadqiq etar ekanmiz, izlanishlar bugungi kunda o‘zining keskin pallasiga kirganligini e‘tirof etishimiz kerak. Chunki ko‘pgina tadqiqotlar mavjudki, ularda kasb tanlash, kasbga yo‘naltirish, kasbiy kamolot, kasbiy faoliyatni boshqarish va kasbiy kamolotning boshqa masalalari tadqiq etiladi va h.z.

Ilmiy manbalarning tahlili shundan dalolat beradiki, kasb tanlash, kasbga yo‘naltirish, kasbiy o‘zlikni anglash va aniqlashga taalluqli umummetodologik va nazariy muammolar borasida qator izlanishlar olib borilgan, bular: L.A.Aza, G.M.Belokrilova, A.E.Golomshtok, V.I.Jukovskaya, Ye.A.Klimov, M.X.Titma, P.A.Shavir, M.G.Davletshin, N.Sh.Shodiev, B.R. Qodirov, E.G.G‘oziev va boshqalar.

Qator tadqiqotlar kasb tanlash, kasbiy faoliyatga yaroqlilik va shaxsning kasbiy o‘zligini anglashi masalalari, kasbiy faoliyatning psixologik talablari va individ faoliyatining psixofiziologik asoslari, kasbiy qiziqishlarning shakllanishini o‘rganishga bag‘ishlangan. Bu yo‘nalishlarda M.X.Titma, Ye.A.Klimov, V.G.Maksimov,

A.P.Chernyavchikaya, Ye.A.Golomshtok, K.M. Gurievich, N.D.Levitov va boshqalarning olib borgan tadqiqot ishlarini misol qilib keltirish mumkin.

Kasbiy o'zlikni aniqlash borasidagi izlanishlarning tahlilidan kasbiy faoliyatning har bir bosqichiga tizim sifatida qarash kerak, degan xulosani chiqarish mumkin. T.M.Buyakas, N.D.Levitov, O.N.Rodinalar o'z tadqiqotlarida kasbiy kamolotning bosqichlaridan biri hisoblangan kasbiy maslahatga alohida e'tibor qaratib, uni shaxsning ma'lum kasbiy faoliyatga moslashuvi jarayonida yo'naltiruvchi sifatida baholaydilar hamda faoliyat samaradorligini shaxsning qobiliyatlariga bog'lab tushuntiradilar.

Biz o'z izlanishimizda bugungi kunda o'quvchilar shaxsining kasbiy shakllanishidagi tasavvurlari, kasb tanlashga sabab bo'luvchi omillar va kasb tanlashga nimalar ta'sir ko'rsatayotganligi, kasbiy faoliyat motivlarining darajalari, shaxsiy va kasbiy maqsad, qiziqishlari hamda kasbiy qarorlari nimadan iborat ekanligini aniqlashga e'tibor qaratdik. Shunday bo'lsa ham hozirgacha ilmiy tadqiqotlarda kasb tanlashning turli xil sabablari mavjudligi aniqlangan.

O'spirinlarning kasbiy o'zlikni anglashi borasidagi holatlari tahlil qilinganda, ularning kasblar to'g'risidagi tushunchalarida sayozlik mavjudligi ko'zga tashlandi. Bundan tashqari, kasbiy o'zligini anglash bilan ma'lum kasbni tanlash jarayoni o'rtasida ta'lim-tarbiya muhiti va atrofdagilarning ta'siri omillarini nazardan chetda tutmasligimiz lozim bo'ladi. Mazkur o'zaro ta'sir jarayonlaridagi dialektik bog'liqlikning o'ziyoq ushbu masalaning naqadar murakkabligidan dalolat beradi. Masalan, birgina kasbiy maslahatni tashkil etishning o'zining bir qator bosqichlari mavjud:

a) kasbiy ma'lumot bosqichida shaxs o'zi uchun mehnatni tashkil etish, ishga qabul qilish talablari, turli kasblarni egallashi, ularni tayyorlash bosqichlari va ta'lim olish muddati, mehnat haqi va kasbning istiqboli xususida ma'lumotlar oladi.

b) diagnostik bosqichda shaxsning o'z tanlagan kasbga nisbatan qiziqishlari, layoqati, qobiliyati va maqsadlarining mosligi o'rganiladi;

v) shakllantiruvchi bosqichda kasb tanlagan o'quvchi yoki shaxsga rahbarlik qilinadi, kasb tanlashdagi og'ishlarning oldi olinadi va tuzatishlar kiritiladi;

g) tibbiy jihatdan salomatligining kasbga mos kelishini aniqlash va psixologik bosqichda shaxs sifatlarining o'z tanlagan kasbga muvofiqligi masalalari muhokama qilinadi.

P.A.Shavirning mulohazalariga ko'ra, shaxsning kasbiy o'zligini aniqlashi qobiliyatning bo'lg'usi kasbiy talablarga mos kelishi, kasbga yaroqliligi bo'yicha o'zini to'g'ri baholashi, irodaviy sifatlar saviyasini o'stirishi, mehnatga muhabbatli bo'lishi va hayotiy tajriba singari shaxslilik asoslari talab etilar ekan. Kasb muammosini o'rganish jabhalarining keng ko'lamdagi o'z tadqiqot predmetiga egaligi bugunga qadar amalga oshirilgan tadqiqot ishlarida kuzatiladi. Ushbu tadqiqotlarning bir necha yil davomida olib borilganligi va ulardan olingan natijalar ko'laminin kengligi e'tiborga molikdir. Ularning bugungi kungi izlanishlar yakunlari bilan qiyoslanishi bu boradagi

qo'lg'a kiritilgan yutuqlarimizni boyitadi. Ammo o'spirinlar kasbiy tasavvurlarining kasbiy shakllanishga va kasbiy faoliyatga muvofiqlashuviga ta'siri masalasi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, qator tadqiqotlar mavjud bo'lib, ularda shaxs kasbiy rivojlanishining psixologik jihatlariga asosiy e'tibor qaratilgan. Mazkur masalalarga biz quyida alohida to'xtalib o'tamiz.

Demak, kasbiy o'z-o'zini aniqlash kasb tanlash, kasbiy tayyorgarlik masalalaridan xabardorlik, kasbiy yo'nalganlik, kasbiy yaroqlilik muhim komponentlarga bo'linadi. Quyida ularga alohida-alohida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Kasbiy yo'nalganlik inson shaxsi yo'nalganligining bir ko'rinishi hisoblanib, bu holat uning chuqur shaxs tuzulmalarigacha kirib boradi. Kasbiy yo'nalganlik insonning individual-psixologik va individual-tipologik xususiyatlarigacha, uning qadriyatlar tizimiga, steriotiplariga, qobiliyatlari va qiziqishlariga borib taqaladi.

Kasbiy yo'nalganlik tizimining quyidagi funksiyalarini ajratib ko'rsatsak bo'ladi:

Ijtimoiy funksiyasi deganda jamiyatning to'laqonli va teng huquqli a'zosi sifatida ijtimoiy kasbiy faoliyatni amalga oshirish imkoniyatini beradigan qadriyatlar, normalar va bilimlarning ma'lum tizimini o'zlashtirish nazarda tutiladi.

Iqtisodiy fuksiyasi deganda xodimlarning sifat tarkibini takomillashtirish, kasbiy faollikni yuksaltirish, ishlab chiqarish unumdorligini va malakasini oshirish tushuniladi.

Psixolog-pedagogik funksiyasi deganda ma'lum kasbni tanlagan kishining individual xususiyatlarini aniqlash, shakllantirish va inobatga olishni tushunish mumkin.

Tibbiy fiziologik funksiyasi deganda sog'liqqa va alohida fiziologik xususiyatlarga nisbatan u yoki bu kasbiy faoliyatni amalga oshirishda zarur bo'ladigan talablarni hisobga olish nazarda tutiladi.

Shunday qilib kasbiy o'zini-o'zi aniqlash jarayonininng muhim komponentlaridan biri hisoblangan - kasbiy yo'nalganlikni hisobga olmaslik insonning noto'g'ri, o'ziga mos bo'lmagan kasbni tanlashga olib kelishi mumkin. Bundan shaxsning o'zi ham, jamiyat ham manfaatdor emas.

Kasbiy o'zini-o'zi aniqlashning muhim elementlaridan biri insonning kasbiy yaroqliligidir. Ma'lumki, inson, masalan uchuvchi bo'lishga qiziqishi mumkin. Boringki, uning kasbiy yo'nalganligi ham to'g'ri kelishi mumkin. Biroq u kasbiy jihatdan yaroqsiz bo'lsa, tabiiyki bu kasbni tanlay olmaydi. Demak, kasbiy yaroqlilik ham insonning kasbiy o'zini-o'zi aniqlashida muhim o'rin tutadi.

Kasbiy yaroqlilikning ikki xil turi farqlanadi: mutloq kasbiy yaroqlilik (bunda insondan maxsus qobiliyat talab qilinadigan kasblar uchun yaroqlilik nazarda tutiladi) va nisbiy kasbiy yaroqlilik (bunda har qanday sog'lom inson uchun imkon darajasida bo'lgan kasblarga yaroqlilik nazarda tutiladi).

Kasbiy yaroqlilikni aniqlash bo'yicha ma'lum bir psixologik testlardan foydalanishda analitik, sintetik va kompleks yondoshuvlardan foydalanish mumkin. A.A. Stolyarov mazkur yondoshuvlarga quyidagicha ta'rif beradi: "Analitik yondoshuv

alohida psixologik ko'rsatkichlarni o'rganish va baholoshni nazarda tutadi (masalan, diqqat, xotira, harakat kordinatsiyalari va h.). Bu ko'rsatkichlar tanlangan kasb bo'yicha ta'lim va faoliyat muvaffaqiyatlari uchun zarur hisoblanadi. Sintetik yondoshuv yaxlit faoliyatni yoki uning muhim elementlarini o'rganishni nazarda tutadi. Shuning uchun ham mazkur metod darajasida turli xil apparatlardan foydalaniladi. Bu apparatlar yordamida butun boshli kasbiy operatsiyalar modellashtiriladi. Kompleks yondoshuv analitik va sintetik yondoshuvlarning qo'shiluvidan paydo bo'ladi".

Endi qisqacha kasb tanlash bilan bog'liq bo'lgan yo'nalishlarga to'xtalib o'tamiz. Ulardan birinchisi kasbiy ma'rifat hisoblanadi. Kasbiy ma'rifat deb tanlanadigan kasb haqida, uning ijtimoiy-psixologik va boshqa jihatlari haqida bilimlarni uzatishga aytiladi. Shuning uchun ma'lum kasbni tanlash jarayonida shu kasb haqida, uning talablari va imkoniyatlari haqida qancha ko'p ma'lumotlarga ega bo'lishlik shu kasbni tanlashda to'g'ri qaror qabul qilishga yordam beradi. Darhaqiqat kasbni tanlash jarayonida kasblar olami haqidagi bilimlar, qanday qilib tanlash haqidagi bilimlari har qanday endigina hayot yo'lining boshida turgan o'spirin uchun juda foydali hisoblanadi.

Keyingi yo'nalish – kasbiy maslahat hisoblanadi. Kasbiy maslahat quyidagi vazifalarni bajarishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi:

A) Lug'aviy- ma'lumot berish vazifasini bajaradi. Bu ma'lumotlar ishga joylashish kanallari, ishga kirishga qo'yiladigan talablar, turli xil kasblarni egallash imkoniyatlari, kasbiy o'sishning kelajakdagi yo'nalishlari haqida ish axtaruvchiga xabar beradi.

B) Diagnostik vazifani bajaradi. Bunda kasb tanlash sub'ekti shaxsini uning ma'lum shaxs xususiyatlari tanlayotgan kasb talablariga mosligi nuqtai-nazardan o'rganish haqida gap ketadi. Biz o'z tadqiqotimizda ham mazkur masalaga etiborimizni qaratganmiz.

V)Korreksion vazifani bajaradi. Kasb tanlash sub'ektining imkoniyatlariga uning qiziqishlarini mos keltirishga qarab o'zgartirish korreksiya deb ataladi.

Shunday qilib, kasbiy o'zini-o'zi aniqlash o'zida quyidagi psixologik muammolarni mujassamlashtiradi: kasb tanlash, kasbiy yo'nalganlik, psixologik tayyorgarlik masalalaridan xabardorlik.

Umuman olganda kasb tanlash muammosi bilan bog'liq barcha jarayonlar quyidagi holatlarda o'z yechimini topishi ko'zda tutiladi:

Kasb tanlash, kasbga o'zining mosligini aniqlash, kasbiy shakllanish, kasbiy rivojlanish uzluksiz davom etuvchi muammo bo'lib, davrning o'zgarishiga qarab unga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning rolini aniqlash zarurdir.

Kasb tanlash, kasbga o'zining mosligini aniqlash, kasbiy shakllanish, kasbiy rivojlanish uzluksiz davom etuvchi muammo bo'lib, davrning o'zgarishiga qarab unga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning rolini aniqlash zarurdir.

O'quvchilarning kasb tanlash va kasbiy shakllanishdagi tasavvurlari atrofdegilarning ta'sirida va mustaqil qaror qabul qilish layoqatiga ega emasligi tufayli yuz bermoqda. Natijada kasbiy shakllanish yo'nalishi bilan kasbiy maqsad o'rtasida

moslik yo‘qolgan. Ilmiy tadqiqotlarda kasb tanlash tizimida “o‘qituvchi-o‘quvchi” hamkorligiga doir muammolarning muhim mexanizm o‘qitish jarayonida sub’ektlar hamkorligining sotsial-psixologik xususiyatlari masalasi izlanishlarning vazifalari qatoriga kirmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Asomova R.Z. Kasb tanlash motivasiyasi va uning dinamikasi. Psix.f.n.....dis.-T., 2002. -137 b. 7.
2. Ismogilova F.S. Professionalniy opit specialistov i upravlenie im v usloviyax formirovaniya rinochnoy ekonomiki. Avtoref. dis. ...doktor. psixol. nauk. -Moskva, 2000.-41 s 8.
3. Kondakov I.M. "Individualno - psixologicheskie osobennosti podrostkov v vibore professii" Moskva, 1989.
4. E.G`oziev. «Psixologiya». Toshkent. «O`qituvchi». 1994. 11. E.G`oziev. «Pedagogik psixologiya asoslari». Toshkent. 1997. 12. Ishmuhammedov
5. Magzumov P.T. va boshqalar. O`quvchilarni mehnatga va kasb tanlashga tayyorlash. –T.: O`qituvchi, 1991y.